

"KONSENSUM" TUSHUNCHASINING O'ZLASHTIRISHI YUZASIDAN OLIB BORILGAN TADQIQOT VA UNING NATIJALARI

Qodirova Munisabonu Ibrohimjon qizi

Fergana State University, Master

munirasattorova879@gmail.com : 91-113-71-31

Abstract: This article presents the research conducted on the assimilation of the concept *consensus* into the Uzbek language and discusses its key findings. The study examines the linguistic, semantic, and cultural aspects of the concept, identifies its Uzbek equivalents, and analyzes its functional features and usage contexts in Uzbek discourse. Surveys conducted among respondents helped determine the perception, comprehension, and frequency of use of the concept “consensus” in the Uzbek language. The findings contribute to developing recommendations for the effective integration of this concept into Uzbek and its appropriate use in both scientific and social discourse.

Аннотация: В данной статье представлены результаты исследования, посвящённого процессу освоения понятия *consensus* в узбекском языке. В работе рассматриваются лингвистические, семантические и культурные аспекты данного термина, выявляются его возможные эквиваленты в узбекском языке, а также анализируются особенности его употребления и функционирования в узбекском дискурсе. На основе опросов, проведённых среди респондентов, установлены особенности восприятия, понимания и частота использования понятия «consensus» в узбекском языке. Полученные результаты могут быть использованы для выработки рекомендаций по эффективной интеграции этого понятия в узбекский язык и его корректному применению в научном и социальном дискурсе.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilidagi *konsensum* tushunchasining o'zbek tilida o'zlashtirilish jarayoni va bu borada olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari yoritiladi. Tadqiqot davomida mazkur tushunchaning lingvistik, semantik va madaniy jihatlarini o'rganilib, uning o'zbek tilidagi ekvivalentlari, qo'llanish sohalari va nutqdagi funksional xususiyatlari tahlil qilindi. Shuningdek, respondentlar ishtirokida o'tkazilgan so'rovlar asosida “konsensum” tushunchasining o'zbek tilidagi idroki, anglanishi va qo'llanish darajasi aniqlashtirildi. Tadqiqot natijalari ushbu tushunchani o'zbek tiliga samarali tarzda integratsiya qilish va uni ilmiy hamda ijtimoiy diskursda to'g'ri qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Keywords: consensus, assimilation, research, linguoculture, semantics, English, Uzbek.

Ключевые слова: консенсус, освоение, исследование, лингвокультура, семантика, английский язык, узбекский язык.

Kalit so'zlar: konsensum, o'zlashtirish, tadqiqot, lingvomadaniyat, semantika, ingliz tili, o'zbek tili.

“Konsensum” tushunchasining o'zlashtirilishi ilmiy va amaliy tahlillar doirasida o'rganilgan bo'lib, bu jarayon o'zbek tilida atama sifatida qabul qilinishi, uning turli sohalarda ishlatilishi va tarjima jarayonidagi o'ziga xosliklarni aniqlashga qaratilgan. “Konsensum” tushunchasi turli tillarda va madaniy muhitlarda har xil yo'llar bilan o'zlashtirilgan. O'zbek va ingliz tillarida ushbu atamaning ishlatilishi va lingvistik evolyutsiyasi bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu bo'limda “konsensum” tushunchasining o'zlashishi, uning semantik, lingvistik va madaniy jihatlarini tahlil qilinadi. “Konsensus” so'zi lotincha “consensus” - yakdillik, kelishuv so'zidan kelib chiqqan bo'lib, dastlab huquqiy va siyosiy kontekstda ishlatilgan. Ingliz tiliga XVI asrda frantsuz tili orqali kirgan, o'zbek tiliga esa rus tili vositasida XX asrda kirib kelgan.

TIL	KELIB CHIQISHI	O'ZLASHTIRISH YILI	MA'NOSI
Lotin tili	consensus	Qadimgi Rim davri	Umumiy kelishuv
Fransuz tili	consensus	O'rta asrlar	Fikr birligi
Ingliz tili	Consensus	XVI asr	Kelishuv, yakdillik
Rus tili	консенсус	XX asr boshida	Kelishuv, umumiy fikir
O'zbek tili	konsensum	XX asr o'rtalarida	Kelishuv, fikr birligi

3.2 - jadval

O'zbek tilshunosligida xorijiy atamalarning o'zlashtirilishi jarayoni til taraqqiyotining muhim omillaridan biri sanaladi. “Konsensum” tushunchasi ham o'zlashtirilgan atamalar sirasiga kiradi va u ilmiy, siyosiy hamda ijtimoiy kontekstlarda

faol qo'llanilmoqda. Ushbu tushuncha o'zbek tiliga lotincha "consensus" so'zidan o'zlashgan bo'lib, "fikir birligi", "umumiy kelishuv", "murosaga asoslangan qaror" mazmunida ishlatiladi.

"Konsensum" tushunchasi bo'yicha olib borilgan lingvistik va tarjimashunoslik tadqiqotlari quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilgan.

1. Termin sifatida o'zlashtirilish shakllari:

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, "konsensum" so'zi asosan transliteratsiya yo'li bilan o'zbek tiliga kirib kelgan. U o'z ma'no yukini saqlagan holda, turli fanlar tiliga moslashtirilgan.

2. Kontekstual qo'llanish tahlili:

O'zbek ilmiy adabiyotlarida, xususan siyosatshunoslik, huquqshunoslik va sotsiologiya sohalarida "konsensum" tushunchasining ishlatilish chastotasi ortib bormoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, bu atama ko'pincha "fikir birligi", "kelishuvga erishish", yoki "o'zaro murosaga" kabi so'zlar bilan izohlanadi.

3. Tarjimaviy moslashuv masalalari:

Tarjimonlar bu atamani ingliz tilidan o'zbek tiliga o'girishda muayyan stilistik va kontekstual farqlarga duch kelishadi. Bu holatda, tarjima strategiyasi sifatida deskriptiv tarjima (izohlab berish) va ekvivalent almashtirish usullari qo'llaniladi.

Tadqiqot natijalari olib borilgan ilmiy izlanishlar quyidagi natijalarni ko'rsatdi. "Konsensum" tushunchasi o'zbek tilida normativ termin sifatida shakllangan bo'lib, ko'pgina ilmiy va rasmiy matnlarda mustaqil birlik sifatida qo'llanilmoqda. Bu tushuncha tilimizga semantik darajada to'laqonli moslashgan, ammo hali ham ayrim ommaviy axborot vositalarida noto'g'ri yoki noaniq ishlatilish holatlari uchramoqda. Tadqiqot "konsensum" o'zbek tilida boshqa so'zlar bilan almashtirib bo'lmaydigan, aniq terminologik yuklamaga ega so'z sifatida qaralishini isbotladi. Shu sababli uni o'z holicha ishlatish ma'qul topilgan.

"Konsensum" tushunchasining o'zlashtirilishi o'zbek tili rivojida globalizatsiya va fanlararo integratsiyaning tabiiy natijasi sifatida baholanmoqda. O'zbek tiliga o'zlashgan bo'lsa-da, bu so'z o'z semantik chegaralarini saqlagan va turli kontekstlarda izchil ishlatilmoqda. Kelajakda ushbu tushunchani to'g'ri tushunish va uni me'yoriy tilda qo'llash uchun terminologik izohli lug'atlar va tarjima qo'llanmalarini yanada boyitish zarur. O'zbek tilida "consensus" atamasi ko'proq siyosiy, huquqiy va diplomatik matnlarda qo'llanilib, oddiy kundalik muloqotda keng ishlatilmaydi.

Konsensum tushunchasining o'zbek tilida semantik-morfologik o'zgarishi

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, "konsensum" o'zlashgan atama bo'lishiga qaramay, u o'zbek tilida morfologik jihatdan deyarli o'zgarmagan. Ko'plik yoki nisbat qo'shimchalari bilan ishlatilmaydi. Masalan: konsensumga erishish, konsensum mavjud emas, konsensum asosida kabi.

Biroq u fe'llar bilan bog'lanib, yangi frazeologik birliklar hosil qilmoqda. Konsensumga kelmoq, konsensumni buzmoq, konsensumni mustahkamlash kabi. Bu tilshunoslar uchun muhim bo'lgan grammatik moslashuv holatidir.

“Konsensum” — formal va ilmiy nutq registriga oid termin hisoblanadi. U og'zaki norasmiy nutqda kam ishlatiladi. Uning o'rnini norasmiy uslubda ko'proq quyidagi ifodalar egallaydi: Kelishuv, fikr birligi, bir yoqadan bosh chiqarish, o'zaro murosa qilish. Shu sababli “konsensum” ko'proq hujjatlar, siyosiy chiqishlar, ilmiy maqolalar va konferensiya nutqlarida qo'llaniladi.

Tarixiy va madaniy muhitdagi o'zlashtirish omillari

O'zbek tiliga “konsensum” so'zining kirib kelishi siyosiy til va diplomatik nutq vositasi sifatida yuzaga chiqqan. Mustaqillikdan keyingi yillarda: xalqaro munosabatlar BMT, YeXHT kabi tashkilotlar orqali, huquqshunoslik parlament faoliyati, konstitutsiyaviy huquqlar, va ijtimoiy fanlar sotsiologiya, siyosatshunoslik, sohalarida bu tushunchaning qo'llanishi keskin oshdi.

Konsensum va unga ekvivalent bo'lgan tushunchalar bor. O'zbek tilshunosligida “konsensum” tushunchasiga mazmunan yaqin bo'lgan, ammo to'liq ekvivalent bo'la olmaydigan bir nechta so'z mavjud:

Bu qiyosiy tahlil konsensumning leksik-semantik alohidaligini ko'rsatadi. Zamonaviy qo'llanilishi va axborot vositalaridagi tahlil. 2020-yildan keyingi siyosiy va ijtimoiy matnlarda “konsensum” so'zi tez-tez uchramoqda. Jumladan: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonun loyihalarini muhokama qilishda: “Fraksiyalar o'rtasida konsensumga erishildi.” Prezident chiqishlarida: “Konsensum asosida hal etiladigan masalalar ko'paymoqda.” Akademik adabiyotlarda: “Siyosiy barqarorlik konsensum bilan bog'liq.” Bu esa atamaning barqaror ishlatilayotgan neologizmga aylanganini ko'rsatadi.

Lotincha “consensus” — “bir fikrda bo'lish”, “kelishuv”, “murosaga kelish” ma'nolarini anglatadi. Ingliz tilida bu so'z asosan ilmiy, siyosiy, ijtimoiy fanlarda barqaror atama sifatida ishlatiladi.

Falsafa va sotsiologiyada “konsensum” jamiyat a'zolari yoki muayyan guruhlar o'rtasida umumiy qabul qilingan qarorlar yoki qadriyatlar asosida birlik hosil bo'lishi sifatida talqin qilinadi. Ingliz tilida bu quyidagicha ifodalanadi: Consensus as a social contract - J.J. Rousseau asarlarida xuddi shunday keltiriladi. “Consensus theory” Emile Durkheim va Talcott Parsons tomonidan ishlangan¹

3. Siyosiy nazariya va amaliyotda konsensum. Siyosiy sohada “konsensum” qarama-qarshi tomonlar o'rtasida qaror qabul qilishda mojarosiz kelishuvga erishish

¹ Rousseau, J.-J. The Social Contract. Durkheim, E. The Division of Labour in Society. Parsons, T. The Social System. Free Press.1951.p.157

vositasi sifatida talqin qilinadi. Bu holatda ingliz tilida quyidagicha ishlatiladi: Political consensus – siyosiy kelishuv

Bipartisan consensus – ikki partiya o'rtasidagi kelishuv.

Consensus democracy – konsensusga asoslangan demokratiya - Arend Lijphart nazariyasida asoslangan.

Muloqotda konsensum tushunchasi tomonlar orasidagi qarama-qarshilikni yumshatish va fikr birligiga erishish jarayonini bildiradi. Masalan:

Consensus-building – fikr birligini shakllantirish

Group consensus – guruh ichida erishilgan kelishuv

Interpersonal consensus – shaxslararo kelishuv

Tarjimada so'zning nafaqat lug'aviy ma'nosi, balki kontekst, stil va uslubiy talablari ham e'tiborga olinadi. Shu bois, "konsensum" so'zi ba'zida bevosita tarjima qilinmasdan, matnning maqsadi va uslubiga qarab sinonimik yoki tavsifiy ibora bilan almashtiriladi.

Turli tadqiqotchilar "konsensus" tushunchasining lingvistik, madaniy va ijtimoiy jihatlarini o'rganishgan. Konsensus — bu til orqali kelishuvga erishish jarayonidir. Dialoglarda, muzokaralarda yoki rasmiy uchrashuvlarda insonlar fikrlarni ifodalab, kelishilgan qarorga keladi.

Tadqiqotchilar bu jarayonni pragmatika, diskurs tahlili va nutq aktlari nazariyasi doirasida o'rganishadi. Masalan, J. Austin va J. Searle nutq aktlari orqali kelishuvga erishish mexanizmlarini izohlagan. "Speech act" ya'ni nutq akti orqali odamlar nafaqat ma'lumot beradi, balki kelishadi, majburlaydi yoki taklif qiladi.²

2. Madaniy jihatdan. Har bir jamiyatda konsensusga erishish uslubi farq qiladi. G'arbiy madaniyatlar: individual fikr va ochiq bahs orqali konsensusga erishiladi. Sharqiy madaniyatlar jumladan, o'zbek jamiyati: konsensus ko'proq ijtimoiy garmoniya, kattalarga hurmat va murosa orqali hosil bo'ladi. Madaniyatshunoslar, masalan Edward Hall va Geert Hofstede, madaniyatning bu kabi o'ziga xosliklarini yuqori yoki past kontekstli madaniyatlar doirasida tahlil qilishgan.³

3. Ijtimoiy jihatdan. Ijtimoiy konsensus – bu jamoa, jamiyat yoki guruh ichida umumiy fikr yoki qabul qilingan qadriyatlar bo'yicha kelishuv. Bu ijtimoiy nazorat, me'yorlarni belgilash va mojarolarning oldini olish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Émile Durkheim va Talcott Parsons kabi sotsiologlar konsensusni jamiyat barqarorligini saqlovchi omil sifatida ko'rgan. Zamonamizda konsensus ijtimoiy tarmoqlarda, siyosiy debatlarida va demokratik jamiyatlarda faol tahlil qilinmoqda.⁴

1-Tadqiqot: Siyosiy lingvistika nuqtayi nazaridan konsensum.

² Austin, J. L. How to Do Things with Words. Harvard University Press.1962.p.27-34

³ Hall, E. T. Beyond Culture. Anchor Books. Hofstede, G. Culture's Consequences: Comparing Values, Behaviors, Institutions and Organizations Across Nations. Sage Publications. 2001.p.83

⁴ Durkheim, E. The Division of Labour in Society. Parsons, T. The Social System. Free Press.1951.p.574-583

Ingliz olimi A. Wierzbicka siyosiy lingvistikada konsensum ishlatilish holatini 1997- yilda o'rganib chiqdi. Natijada esa, konsensum tushunchasi har bir madaniyatda turlicha talqin qilinadi. Masalan, g'arb davlatlarida u huquqiy kelishuv bilan bog'liq bo'lsa, sharq madaniyatlarida og'zaki kelishuv muhim.⁵

2 - Tadqiqot: Rus tilidan o'zbek tiliga o'zlashish jarayoni

Olim U. Abdullayev tomonidan 2008-yilda bu masala ishlab chiqildi.

Natijalar: "Konsensum" so'zi rus tilidan to'g'ridan-to'g'ri o'zbek tiliga kirgan va asosan diplomatik tilda ishlatiladi. Uning o'zbek tilidagi ekvivalenti "kelishuv" bo'lsa-da, siyosiy va huquqiy matnlarda lotincha shakli afzal ko'riladi⁶.

3 - Tadqiqot: Frazologik birliklarda konsensum tushunchasi

Ingliz olimlari J. Lakoff va M. Johnson tomonidan 1980- yilda frazeologik birikmalar va ularda konsensumning qo'llanilishini izohlagan. Natijalar: Konsensumga oid iboralar madaniyatlararo farqlarga ega. Masalan, ingliz tilida "To reach a consensus" iborasi rasmiy muhokama natijasi sifatida qabul qilinsa, o'zbek tilida "Bir yoqadan bosh chiqarish" iborasi an'anaviy birdamlikni aks ettiradi. Konsensum tushunchasi turli tillarga turlicha o'zlashtirilgan. ⁷Misol uchun, g'arb madaniyatlarida rasmiy kelishuv va huquqiy asos muhim bo'lsa, sharq madaniyatlarida og'zaki kelishuv va jamoaviy maslahat asosiy o'rin tutadi. Bu natijalar shuni ko'rsatadiki, har bir til va madaniyat konsensus tushunchasini o'z ehtiyojlariga mos ravishda shakllantirgan. O'zbek tilida u ko'proq ijtimoiy birdamlik va og'zaki kelishuv asosida namoyon bo'lsa, ingliz tilida rasmiy muhokama va yozma kelishuv shaklida ifodalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baker, M. , In Other Words: A Coursebook on Translation. Routledge, 2018
2. Newmark, P., . A Textbook of Translation. Prentice Hall, 1988
3. Bassnett, S. ,. Translation Studies. Routledge,2002
4. Hatim, B., & Munday, J. ,. Translation: An Advanced Resource Book. Routledge, 2004
5. Nida, E. A., & Taber, C. R. ,. The Theory and Practice of Translation. Brill, 1982
6. Vinay, J.-P., & Darbelnet, J.,. Comparative Stylistics of French and English: A Methodology for Translation. John Benjamins, 1995
7. Берман, А. . Перевод и смысл. Москва: Прогресс, 1995
8. Латышев, Л. К. . Перевод: проблемы теории, практики и методики обучения. Москва: Высшая школа, 1981
9. Муминов, М. ,. O'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima nazariyasi. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti. 2019
10. Komissarov, V. N. ,. Theory of Translation (English and Russian). Moscow: Vysshaya Shkola. 1990.

⁵ Kramsch, C. Language and Culture. – Oxford University Press, 1998.p.467

⁶ Abdullayev, U. Rus va o'zbek tillarida konsensum tushunchasining o'zlashuvi. Toshkent: Fan nashriyoti.2008.p.97-103

⁷ Lakoff, G., & Johnson, M. Metaphors We Live By. University of Chicago Press.1980.p.63-76